


## VIII.XIZMATLAR

2024- yil yanvar-sentabr oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hajmi 19 164,5 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2023- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish 112,6 foizni tashkil etdi.



2024- yil 1-oktabr holatiga ko'ra xizmat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining (18 587 birlikni) 15 423 birligi kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

### XIZMATLAR SOHASINI STATISTIK HISOBI

**Xizmatlar sohasi bu** — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Bu mamlakatning savdo, professional va maishiy xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan iqtisodiy tarmog'idir.

**Xizmatlar sohasi**, moddiy ishlab chiqarish bilan taqqoslaganda, bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Birinchidan, tovarlardan farqli o'laroq, xizmatlar asosan bir vaqtning o'zida ishlab chiqariladi va iste'mol qilinadi va ularni saqlash man etiladi. Ikkinchidan, xizmat ko'rsatish ko'pincha mahsulotlar ishlab chiqarishga ketgan vaqtdan farqlanadi, garchi sanoatda texnik xizmat ko'rsatish roli ortib bormoqda, bu uskunalarni ta'mirlash, sotishdan keyingi xizmatlar va tovarlarni sotish bilan bog'liq boshqa xizmatlarni o'z ichiga olishi mumkin. Aytish joizki, ko'p hollarda xizmatda mahsulot elementi mavjud, xuddi mahsulot sotishda xizmat elementi mavjud bo'lgani kabi.

**Xizmatlar** – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.


**2024- yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar kesimida  
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

<i>Shahar va tumanlar nimui</i>	<i>mlrd. so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>	<i>Jamiga nisbatan ulushi, % da</i>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>19 164,5</b>	<b>100,0</b>	<b>112,6</b>
Urganch shahri	4270,2	22,3	123,7
Xiva shahri	544,2	2,8	117,4
<i>tumanlar:</i>			111,7
Bog'ot	617,5	3,2	105,9
Gurlan	552,7	2,9	111,7
Qo'shko'pir	571,0	3,0	113,4
Urganch	952,8	5,0	111,8
Hazorasp	833,3	4,4	98,3
Tuproqqal'a	242,3	1,3	110,9
Xonqa	747,1	3,9	101,8
Xiva	572,8	3,0	110,4
Shovot	562,7	2,9	109,6
Yangiariq	503,4	2,6	96,4
Yangibozor	409,0	2,1	116,6


*\*Viloyat hajmida yashirin iqtisod  
hajmi xisobga olingan*

## Aholi jon boshiga xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

### Xizmatlar hajmi, ming. so'mda



### O'sish sur'ati



### Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi va o'sish sur'ati

(2024- yil yanvar- sentabr)

	Hajm, ming. so'mda	O'sish sur'ati, %
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>9 542,6</b>	<b>110,5</b>
<b>Urganch sh</b>	<b>27 692,7</b>	<b>110,6</b>
<b>Xiva sh</b>	<b>5 485,8</b>	<b>111,7</b>
<b>Bog'ot</b>	<b>3 482,6</b>	<b>110,4</b>
<b>Gurlan</b>	<b>3 496,1</b>	<b>110,0</b>
<b>Qo'shko'pir</b>	<b>3 116,9</b>	<b>111,8</b>
<b>Urganch</b>	<b>4 427,6</b>	<b>108,6</b>
<b>Hazorasp</b>	<b>4 017,9</b>	<b>112,6</b>
<b>Tuproqqal'a</b>	<b>4 051,6</b>	<b>109,8</b>
<b>Xonqa</b>	<b>3 742,7</b>	<b>111,1</b>
<b>Xiva</b>	<b>3 672,1</b>	<b>108,4</b>
<b>Shovot</b>	<b>3 100,0</b>	<b>110,7</b>
<b>Yangiariq</b>	<b>4 065,9</b>	<b>108,9</b>
<b>Yangibozor</b>	<b>4 398,3</b>	<b>109,3</b>

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarni rivojlantirish o'rtacha aholi jon boshini rivojlanish ko'rsatkichiga muhim ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, aholi soni nisbatan kam bo'lgan Bog'ot va Urganch tumanlarida aholi jon boshiga ko'rsatkichlar aholi zich joylashgan tumanlar: Urganch, Urganch va Urganch tumanlariga qaraganda yaxshiroq ko'rinadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sanoati rivojlangan hududlar (qazib olish sanoati bundan mustasno) Urganch va Urganch tumanlari hamda, Xiva shahrida xizmatlar sohasining aholi jon boshiga o'rtacha ko'rsatkichlari Qo'shko'pir, Bog'ot va Hazorasp tumanlariga nisbatan yuqori ekanligini ko'rsatmoqda.

## IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO‘YICHA ISHLAB CHIQARILGAN XIZMATLAR

Bugungi kunda xizmatlar sohasi zamonaviy milliy iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biridir. Ushbu tarmoq an’anaviy faoliyat bilan cheklanib qolmaydi, u jamiyat hayotida o‘z ishtirokini doimiy ravishda kengaytirib boradi, ijtimoiy ishlab chiqarishga integratsiyalashgan, shuningdek, iqtisodiyotning deyarli barcha sohalari bilan o‘ziga xos aloqalar bilan bog‘langan.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqarilgan bozor xizmatlari

Xizmat turlarining nomi	Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘mda		Ulushi, % da	O‘shish sur‘ati, % da
	2023- y yanvar- sentabr	2024- y yanvar- sentabr		
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>15 222,7</b>	<b>19 164,5</b>	<b>100,0</b>	<b>112,6</b>
<i>shu jumladan asosiy turlari bo‘yicha:</i>				
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	520,5	678,1	3,5	123,7
moliyaviy xizmatlar	2 392,0	2 959,2	15,5	117,4
transport xizmatlari	1 976,2	2 660,4	13,9	111,7
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	1 852,3	2 473,6	12,9	105,9
yashash va ovqatlanish xizmatlari	5 178,0	6 662,9	34,8	111,7
savdo xizmatlari	2 445,9	2 941,6	15,3	113,4
ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	272,3	326,1	1,7	111,8
ta’lim sohasidagi xizmatlar	507,7	544,6	2,8	98,3
sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	296,9	348,4	1,8	110,9
ijara xizmatlari	149,7	183,1	1,0	101,8
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’minlash bo‘yicha xizmatlar	474,9	580,3	3,0	110,4
shaxsiy xizmatlar	380,4	476,1	2,5	109,6
me‘morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	143,8	166,6	0,9	96,4
boshqa xizmatlar	484,4	637,1	3,3	116,6

2024- yil yanvar – sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida moliyaviy xizmatlari 15,5 %, transport xizmatlari – 13,9 %, savdo xizmatlar – 15,3 %, yashash va ovqatlanish xizmatlari – 34,8 %, ni egallaydi.


**Taqqoslash uchun:** 2023- yil yanvar-sentabr oylarida xizmatlarning umumiy hajmida savdo xizmatlari 16,1 %, transport xizmatlari – 13,0 %, moliyaviy xizmatlar – 15,7 %, yashash va ovqatlanish xizmatlari – 34,0 % ni tashkil etdi.

## Savdo xizmatlari

**Savdo xizmatlari** – hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalar, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

2024-yil yanvar-sentabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 2 941,6 mlrd. soʻmga yetdi. 2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan ushbu xizmatlarning oʻsish surʻati 113,4 % ga yetdi. Koʻrsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 15,3 % ni tashkil etdi.

### Xizmatlar hajmi, mlrd. soʻmda



### Shahar va tumanlar kesimida savdo xizmatlari hajmi (2024-yil yanvar-sentabr)

Shahar va tumanlar	Hajm mlrd. soʻmda	Oʻsish surʻati, 2023- yil yanvar-sentabr oyiga nisbatan % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>2 941,6</b>	<b>113,4</b>
Urganch shahri	541,2	117,6
Xiva shahri	149,6	111,9
<i>tumanlar:</i>		
Bogʻot	153,9	107,2
Gurlan	171,1	110,7
Qoʻshkoʻpir	173,3	110,6
Urganch	279,1	111,2
Hazorasp	196,3	102,8
Tuproqqalʼa	75,3	111,3
Xonqa	188,8	104,4
Xiva	146,0	111,3
Shovot	138,5	107,3
Yangiariq	142,7	110,3
Yangibozor	110,7	110,9


\**Viloyat hajmida yashirin iqtisod hajmi xisobga olingan*

## Avtomobil transporti xizmatlari

**Avtomobil transporti xizmatlariga** temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2 660,4 mlrd. so'mga yetdi.

2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan ushbu xizmatlarning o'sish sur'ati 111,7 % ga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 13,9 % ni tashkil etdi.



### Shahar va tumanlar kesimida avtomobil transporti xizmatlari (2024- yil yanvar-sentabr)

<i>Shahar va tumanlar</i>	<i>Xizmatlar hajmi, mlrd. so'mda</i>	<i>Ulushi, % da</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>2 660,4</b>	<b>100,0</b>	<b>111,7</b>
Urganch sh.	498,5	21,0	115,8
Xiva sh.	60,8	2,6	110,0
Bog'ot	184,1	7,8	109,0
Gurlan	178,6	7,5	112,8
Qo'shko'pir	161,5	6,8	115,0
Urganch	265,7	11,2	103,9
Hazorasp	181,2	7,6	105,0
Tuproqqal'a	66,5	2,8	108,5
Xonqa	222,8	9,4	118,4
Xiva	160,2	6,8	111,1
Shovot	131,2	5,5	107,9
Yangiariq	130,5	5,5	115,0
Yangibozor	129,9	5,5	109,9

\**Viloyat hajmida yashirin iqtisod hajmi xisobga olingan*


## Moliyaviy xizmatlar

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to‘lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo‘yicha xizmatlari uchun to‘lanadigan haq hisobiga ko‘ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlarning hajmi 2 959,2 mlrd. so‘mga yetdi. Jami ko‘rsatilgan xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlarning ulushi 15,5 % ni tashkil etdi.

### Moliyaviy xizmatlarning tarkibi

(2024- yil yanvar-sentabr)



### Shahar va tumanlar kesimida moliyaviy xizmatlar tarkibi (2024- yil yanvar-sentabr)

Moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari (pul mablag'larini olish va qayta taqsimlash bo'yicha xizmatlar) ustunlik qiladi. 2024- yil yanvar-sentabr oylarida ularning ulushi 93,4 % ni tashkil etdi.


Shahar va tumanlar	Xizmatlar hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>2 959,2</b>	<b>100,0</b>	<b>117,4</b>
Urganch sh	1768,3	59,8	117,1
Xiva sh	48,3	1,6	115,3
Bog'ot	79,2	2,7	116,6
Gurlan	56,5	1,9	118,7
Qo'shko'pir	67,4	2,3	116,4
Urganch	122,2	4,1	117,2
Hazorasp	295,4	9,9	119,0
Tuproqqal'a	38,9	1,3	117,6
Xonqa	139,4	4,7	117,4
Xiva	99,8	3,4	119,4
Shovot	123,0	4,2	117,0
Yangiariq	79,7	2,7	117,9
Yangibozor	41,1	1,4	118,5

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi** – amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig‘indisi sifatida aniqlanadi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi 678,1 mlrd. so‘m darajasida qayd etildi va 2023- yilning yanvar-sentabriga nisbatan o‘shish sur‘ati 123,7 % ni tashkil etdi.

### Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘mda



### O‘shish sur‘ati



Shahar va tumanlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	Hajm, mlrd. so‘mda	Ulushi, % da	O‘shish sur‘ati, % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>678,1</b>	<b>100,0</b>	<b>123,7</b>
<b>Urganch sh</b>	<b>160,8</b>	<b>24,9</b>	<b>124,1</b>
<b>Xiva sh</b>	<b>27,0</b>	<b>4,2</b>	<b>123,2</b>
<b>Bog‘ot</b>	<b>45,4</b>	<b>7,0</b>	<b>122,2</b>
<b>Gurlan</b>	<b>41,4</b>	<b>6,4</b>	<b>121,6</b>
<b>Qo‘shko‘pir</b>	<b>47,7</b>	<b>7,4</b>	<b>122,6</b>
<b>Urganch</b>	<b>56,7</b>	<b>8,8</b>	<b>123,3</b>
<b>Hazorasp</b>	<b>53,1</b>	<b>8,2</b>	<b>122,7</b>
<b>Tuproqqal‘a</b>	<b>15,4</b>	<b>2,4</b>	<b>121,9</b>
<b>Xonqa</b>	<b>51,9</b>	<b>8,1</b>	<b>123,1</b>
<b>Xiva</b>	<b>41,1</b>	<b>6,4</b>	<b>124,7</b>
<b>Shovot</b>	<b>46,8</b>	<b>7,3</b>	<b>122,7</b>
<b>Yangiariq</b>	<b>32,7</b>	<b>5,0</b>	<b>123,6</b>
<b>Yangibozor</b>	<b>25,0</b>	<b>3,9</b>	<b>121,4</b>

*\*Viloyat hajmida yashirin iqtisod hajmi xisobga olingan*




## Ta'lim sohasidagi xizmatlar

**Mazkur seksiya** kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali davlat tomonidan beriladigan yoki xususiy turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi. Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'limni qo'llab-quvvatlash faoliyati va boshqalar kiradi.

**Ta'lim sohasidagi xizmatlar faoliyatini** amalga oshirishda ko'rsatilgan bozor xizmatlari, jumladan, masofaviy ta'lim xizmatlarini ko'rsatish qiymati (kontrakt o'qitish shakli) aks ettiriladi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 544,6 mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilga nisbatan o'sish sur'ati 98,3 % ni tashkil etgan.



### Shahar va tumanlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi (2024-yil yanvar-sentabr)

Shahar va tumanlar	Xizmatlar hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>544,6</b>	<b>100,0</b>	<b>98,3</b>
Urganch sh	340,5	65,4	92,0
Xiva sh	65,7	12,6	107,2
Bog'ot	12,3	2,4	127,7
Gurlan	4,6	0,9	119,1
Qo'shko'pir	11,9	2,3	121,1
Urganch	21,8	4,2	115,0
Hazorasp	10,0	1,9	111,8
Tuproqqal'a	2,9	0,5	113,6
Xonqa	17,1	3,3	109,2
Xiva	7,5	1,4	100,9
Shovot	7,4	1,4	105,7
Yangiariq	10,2	2,0	109,2
Yangibozor	8,8	1,7	107,8


*\*Viloyat hajmida yashirin iqtisod hajmi xisobga olingan*

## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi 348,4 mlrd. so'mga ya'ni, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining 1,8 % iga yetdi. 2023- yilga nisbatan o'sish sur'ati 110,9 % ni tashkil etgan.

**Taqqoslash uchun:** 2023- yilda ushbu xizmatlar hajmi 296,9 mlrd. so'mni yoki ularning umumiy hajmining 2,0 % ini tashkil etgan.



### Shahar va tumanlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi, (2024- yil yanvar-sentabr)

	Hajm mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>348,4</b>	<b>100,0</b>	<b>110,9</b>
Urganch shahri	136,7	60,1	112,2
Xiva shahri	5,6	2,5	109,3
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	4,3	1,9	111,9
Gurlan	6,3	2,8	110,6
Qo'shko'pir	6,6	2,9	100,0
Urganch	40,2	17,7	100,4
Hazorasp	3,8	1,7	109,5
Tuproqqal'a	1,2	0,5	100,6
Xonqa	7,5	3,3	109,3
Xiva	5,0	2,2	105,1
Shovot	4,8	2,1	103,6
Yangiariq	3,1	1,3	114,0
Yangibozor	2,3	1,0	112,7


\**Viloyat hajmida yashirin iqtisod hajmi xisobga olingan*

Sog'liqni saqlash sohasidagi ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi Urganch shahrida – 60,1 %, Urganch tumanida – 17,7 %, Xonqa tumanida – 3,3 % ni tashkil etadi.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi** – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.



2023-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 2024-yil yanvar-sentabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 1 484,9 mlrd. so'mga oshib, 6 662,9 mlrd. so'mga yetdi, o'sish sur'ati esa 111,7 % ni tashkil

### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

### Shahar va tumanlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024- yil yanvar-sentabr)

Shahar va tumanlar	Xizmatlar hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>6 662,9</b>	<b>100,0</b>	<b>111,7</b>
Urganch sh	155,4	38,4	111,9
Xiva sh	70,1	17,3	131,1
Bog'ot	20,7	5,1	111,3
Gurlan	4,6	1,2	112,9
Qo'shko'pir	4,6	1,1	112,8
Urganch	58,1	14,4	143,3
Hazorasp	10,9	2,7	111,6
Tuproqqal'a	4,3	1,1	100,4
Xonqa	21,9	5,4	111,3
Xiva	7,7	1,9	111,6
Shovot	20,7	5,1	111,3
Yangiariq	12,9	3,2	112,1
Yangibozor	12,5	3,1	111,1

\**Viloyat hajmida yashirin iqtisod hajmi xisobga olingan*

Yashash bo'yicha xizmatlar

1,6 %


98,4 %

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar

## Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi 326,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi 1,7 % ni tashkil etdi. 2023- yilga nisbatan o'sish sur'ati 111,8 % ni tashkil etgan.



### Shahar va tumanlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi (2024-yil yanvar-sentabr)

	Hajm mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>326,1</b>	<b>100,0</b>	<b>111,8</b>
Urganch shahri	70,0	28,3	108,1
Xiva shahri	14,5	5,9	113,0
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	14,8	6,0	111,7
Gurlan	16,4	6,6	105,0
Qo'shko'pir	13,4	5,4	112,5
Urganch	17,9	7,3	105,5
Hazorasp	21,9	8,9	117,5
Tuproqqal'a	6,0	2,4	113,4
Xonqa	16,5	6,7	108,9
Xiva	12,4	5,0	113,8
Shovot	15,1	6,1	113,6
Yangiariq	14,3	5,8	113,6
Yangibozor	13,7	5,6	113,8

*\*Viloyat hajmida yashirin iqtisod hajmi xisobga olingan*


Shahar va tumanlar o'rtasida ko'chmas mulk bilan bog'liq ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida Urganch shahrining ulushi 28,3 % ni tashkil etdi. Hazorasp 8,9 % ni va Urganch tumanida 7,3 % ni tashkil etdi.

2023-yilga nisbatan ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning o'sish sur'ati Urganch shahrida – 108,1 % ga, Xiva shahrida – 113,0 % darajasida qayd etildi.

## Ijara xizmatlari

Ijara xizmatlari bo‘yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

2023-yil yanvar-sentabrga nisbatan ijara xizmatlari hajmi 33,4 mlrd. so‘mga oshib, 2024-yil yanvar-sentabrda 183,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi 1,0 % ni tashkil etdi. 2023- yilga nisbatan o‘shish sur‘ati 101,8 % ni tashkil etgan.




### Shahar va tumanlar kesimida ijara xizmatlar hajmi

Shahar va tumanlar	Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘mda	Ulushi, % da	O‘shish sur‘ati, % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>183,1</b>	<b>100,0</b>	<b>101,8</b>
Urganch sh.	66,0	38,0	105,6
Xiva sh.	6,6	3,8	101,1
Bog‘ot	10,4	6,0	100,9
Gurlan	8,4	4,8	101,8
Qo‘shko‘pir	8,6	4,9	101,7
Urganch	11,1	6,4	101,2
Hazorasp	9,3	5,4	100,7
Tuproqqal‘a	5,7	3,3	103,8
Xonqa	9,6	5,5	102,0
Xiva	10,1	5,8	101,1
Shovot	10,0	5,7	100,8
Yangiariq	10,0	5,7	100,1
Yangibozor	8,1	4,7	101,3

\* Viloyat hajmida yashirin iqtisod hajmi xisobga olingan

**Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi** bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish, kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyafzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi 580,3 mlrd. so'm qayd etilib, 2023- yilga nisbatan o'sish sur'ati 110,4 % ni tashkil etdi.



**Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar hajmi va o'sish sur'ati**  
(2024- yil yanvar-sentabr)

Shahar va tumanlar	Xizmatlar hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>580,3</b>	<b>100,0</b>	<b>110,4</b>
Urganch sh	101,1	22,5	118,4
Xiva sh	32,5	7,2	106,2
Bog'ot	51,6	11,5	111,1
Gurlan	31,3	7,0	110,0
Qo'shko'pir	30,9	6,9	109,1
Urganch	30,8	6,9	112,2
Hazorasp	20,6	4,6	111,9
Tuproqqal'a	8,9	2,0	113,6
Xonqa	30,4	6,8	107,2
Xiva	34,3	7,7	107,1
Shovot	27,1	6,0	106,8
Yangiariq	25,7	5,7	101,6
Yangibozor	23,4	5,2	100,1

\**Viloyat hajmida yashirin iqtisod hajmi xisobga olingan*


Urganch shahrida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi 101,1 mlrd. so'mga yetdi.

2023-yilga nisbatan Urganch shahrida o'sish sur'ati 118,4 % ni, Xiva shahrida bu ko'rsatkich 106,2 % ni tashkil etdi.

## Shaxsiy xizmatlar

**Shaxsiy xizmatlar hajmi** to‘qimachilik va mo‘ynali buyumlarni yuvish va kimyoviy tozalash bo‘yicha, sartaroshxona va go‘zallik salonlari, dafn marosimlarini tashkil qilish xizmatlari va shu bilan bog‘liq xizmatlar jismoniy komfortni ta‘minlash bo‘yicha xizmatlarni va boshqa guruhlariga kiritilmagan boshqa shaxsiy xizmatlarning qiymatini o‘z ichiga oladi.

2023- yil yanvar-sentabrga nisbatan Shaxsiy xizmatlar hajmi 95,7 mlrd. so‘mga oshib, 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida 476,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi 2,5 % ni tashkil etdi. 2023- yil yanvar-sentabrga nisbatan o‘shish sur‘ati 109,6 % ni tashkil etgan.



Shahar va tumanlar	Hajm mlrd. so‘mda	Ulushi, % da	O‘shish sur‘ati, % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>476,1</b>	<b>100,0</b>	<b>109,6</b>
Urganch shahri	91,4	22,1	114,1
Xiva shahri	25,6	6,2	111,4
<i>tumanlar:</i>			
Bog‘ot	30,5	7,4	110,3
Gurlan	27,3	6,6	109,2
Qo‘shko‘pir	34,0	8,2	111,6
Urganch	26,7	6,5	109,7
Hazorasp	23,4	5,7	109,3
Tuproqqal‘a	6,1	1,5	107,5
Xonqa	25,7	6,2	109,1
Xiva	37,4	9,1	106,0
Shovot	28,7	6,9	108,1
Yangiariq	32,4	7,8	107,3
Yangibozor	24,2	5,8	110,3

*\*Viloyat hajmida yashirin iqtisod hajmi xisobga olingan*

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida Shaxsiy xizmatlarning umumiy hajmida Urganch shahrining ulushi 22,1 % ni tashkil etgan.

Xizmatlar sohasi texnologiyalari va tarmoq tuzilmasining murakkablashishi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifati va xilma-xilligini yaxshilash, shuningdek, yuqori texnologiyali va intensiv xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining jadal rivojlanishi korxonalar, tashkilot va xo‘jaliklarning samaradorligi va raqobatbardoshligini yanada oshirishga, aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.